

INVESTITSION LOYIHALARNI BAHOLASH USLUBIYOTI

Turayeva Gulizaxro

Guliston davlat universiteti dotsenti

Azimov Shoxrux

Jo‘raqulov Muhammadin

Toshpo‘latov Abduvohid

Guliston davlat universiteti talabalari

Annotatsiya. Mazkur tezis investitsion loyihalarni baholash uslubiyotini tizimli yondashuvda taqdim etadi. Baholash usullari diskontlangan pul oqimi, xarajat-foyda tahlili, variantlarni taqqoslash hamda risk va sezuvchanlik tahlilini o‘z ichiga oladi. Loyihaning samarasi bo‘yicha tashqi omillar — investitsion muhit, texnik-iqtisodiy asos, moliyalashtirish manbalari, ijtimoiy-ekologik ta’sirlar muhim rol o‘ynaydi. Qaror qabul qilish bosqichlari konsepsiya tanlashdan boshlab, pul oqimlari prognozidan yakuniy tanlovgacha bosqichlab ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuv investorlarga mablag‘larni oqilona taqsimlash, loyihani tanlashda xatolarni kamaytirish hamda investitsion samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: loyiha, mezonlar konsepsiya, yondashuv, daromad, investitsiya, iqtisodiy o‘rinish, investitsiya dasturi.

Аннотация. В данной диссертации представлен системный подход к методологии оценки инвестиционных проектов. Методы оценки включают дисконтирование денежных потоков, анализ затрат и выгод, сравнение вариантов, а также анализ рисков и чувствительности. Внешние факторы – инвестиционная среда, технико-экономическая база, источники финансирования, социальные и экологические последствия – играют важную роль в эффективности проекта. Этапы принятия решений рассматриваются поэтапно, начиная с выбора концепции, прогноза денежных потоков и заканчивая окончательным выбором. Такой подход помогает инвесторам рационально распределять средства, снижать ошибки при выборе проекта и повышать эффективность инвестиций.

Ключевые слова: проект, критерии, концепция, подход, доход, инвестиции, экономический рост, инвестиционная программа.

Annotation. This thesis presents a systematic approach to the methodology for evaluating investment projects. The evaluation methods include discounted cash flow, cost-benefit analysis, comparison of options, and risk and sensitivity analysis. External factors - the investment environment, technical and economic basis, financing sources, social and environmental impacts - play an important role in the effectiveness of the project. The decision-making stages are considered in stages, starting from the choice of the concept, from the cash flow forecast to the final selection. This approach helps investors to rationally allocate funds, reduce errors in project selection, and increase investment efficiency.

Key words: project, criteria, concept, approach, income, investment, economic growth, investment program.

KIRISH

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda bugungi kunda asosiy e'tibor iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar va ularning salmog'i qaratilmoqda. Chunki iqtisodiy o'sishni investitsiyalarning hajmi va ularning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Shularni inobatga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz iqtisodiy siyosati istiqbolini belgilab berishda ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiyalarni keng jalb etish ayniqsa, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlarni yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Investitsiyalar har qanday mamlakat iqtisodiyoti o'sishini ta'minlash, uni har tomonlama taraqqiy ettirishning zarur sharti va manbai hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiyotda investitsiya hajmi yildan yilga sezilarli darajada o'sib borishiga hamda milliy ishlab chiqarish hajmi ortishi orqali ijobiy natijalar berishga imkon yaratmoqda.

TAHLIL VA NATIJA

Investitsion loyihalarni baholash jarayoni bir qator asosiy mezonlar va usullar asosida amalga oshiriladi. Baholashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri — sof joriy qiymat bo'lib, u loyiha kelajakda keltiradigan pul oqimlarining bugungi kunga keltirilgan qiymatini ifodalaydi. Shuningdek, ichki daromadlilik stavkasi investitsiya birligiga nisbatan olinadigan kutilayotgan daromad darajasini ko'rsatadi. To'liq qoplash muddati loyihaga sarflangan investitsiyaning qancha vaqt ichida qaytishini aniqlashda qo'llaniladi. Daromadlilik indeksi esa har bir investitsiya birligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadning uning xarajatiga nisbatan qanchalik yuqoriligini baholaydi.

Loyihalarni tahlil qilishda bir nechta baholash usullari qo'llanadi. Diskontlangan pul oqimi tahlili kelajakdagi pul oqimlarini bugungi qiymatga keltirish orqali loyiha samaradorligini aniqlaydi. Variantlar mavjud bo'lgan holatlarda variantlarni taqqoslash usuli eng maqbul loyihani tanlash imkonini yaratadi. Bundan tashqari, risk va sezuvchanlik tahlili loyihaning amalga oshishiga ta'sir qiluvchi xavf omillari, noaniqliklar va ularning ehtimoliy ta'sir darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Investitsion loyihani baholashda tashqi va ichki omillar ham muhim o'rin tutadi. Jumladan, investitsion muhit va bozor sharoiti loyihaning iqtisodiy muhitga qay darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Texnik-iqtisodiy asoslanish ishlab chiqarish texnologiyasi, xomashyo ta'minoti, quvvatlardan foydalanish va umumiy samaradorlikning qay darajada optimal ekanligini baholaydi. Loyihaning moliyaviy barqarorligi moliyalashtirish manbalari — kapital, kredit, subsidiya yoki grantlar bilan ta'minlanganligiga ham bog'liq. Shuningdek, loyiha ijtimoiy va ekologik ta'sir nuqtai nazaridan ham o'rganiladi, ya'ni uning jamiyat, aholi farovonligi va atrof-muhitga ta'siri alohida hisobga olinadi.

XULOSA

Investitsiya loyihasining moliyaviy tahlili loyihadan keladigan samaraning uning har bir ishtirokchilarning o'z maqsadlaridan kelib chiqib, loyihani amalga oshirishdagi erishilishi lozim bo'lgan natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlarini ochib beradi. Mustaqillik yillaridan ancha oldin kapital qo'yilmalarning samaradorligini baholash akademik T.S.Xachaturov ilmiy boshchiligida ishlab chiqilgan uslub asosida amalga oshiriladi. Bu uslub asosida samaradorlikning tarmoq me'yor koeffitsienti yordamida taqqoslama iqtisodiy samaradorlikni hisoblash yo'li bilan absolyut va nisbiy ko'rinishlardagi ularning qoplanishini hisoblash usullari yotar edi. Investitsiyalash variantlarini tanlashda ham ushbu uslubning o'ziga xos o'rni bor edi, lekin ularda noaniqlik va risklar, inflyatsiya sharoitida real va nominal qiymatlarni baholash va shu kabi uslublar yo'q edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sunatullayev A.Y. "Investitsiya loyihalari tahlili", Toshkent, 2020.
2. Gulizahro T. The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade) //Raqqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika). – 2023. – №. 2. – S. 14-20.
3. Farid, N., Javoxir, R., Abbosxon, A., & Gulizahro, T. (2025). Ta'minot zanjirida vmi logistika texnologiyasidan foydalanishni afzalliklari. Fan va Tadqiqot Samaralari, 2(4), 91-93.
4. Jo'rayev A., "Investitsion faoliyat va moliyaviy boshqaruv", TDIU, 2019.
5. Turaeva G. K. Aktualnost obespecheniya stabilnosti proizvodstva zerna v natsionalnoy ekonomike //Ekonomika i sotsium. – 2024. – №. 2-1 (117). – S. 1387-1394.